

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 9.93/94

**TUROR RISQULOV SIYOSIY FAOLIYATINING BOSHLANISHI VA MAMLAKATDAGI
SIYOSIY JARAYONLARDA TUTGAN O'RNI**

**НАЧАЛО ПОЛИТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРОР РИСКУЛОВА И ЕГО РОЛЬ В
ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ СТРАНЫ**

**THE BEGINNING OF TUROR RISQULOV'S POLITICAL ACTIVITY AND HIS ROLE IN
THE POLITICAL PROCESSES OF THE COUNTRY**

Qandov Bahodir Mirzayevich 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Turkiston mahalliy aholi vakillarining o'z siyosiy huquqlariga ega bo'lishlari uchun kurashlari ishtirokchisi Turor Risqulovning siyosiy faoliyatining boshlanishi hamda Turkiston o'lka muxtoriyatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli, madaniy hayotdagi o'zgarishlar kabi asosiy masalalar o'rganilgan. Turor Risqulovning mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'mi va ijtimoiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek ushbu maqolada XX asr boshidagi atoqli davlat va jamoat arbobi – T.Risqulov faoliyati yoritilgan. Bugungi kunda Respublikamizda siyosiy qatag'on qurbanlari xotirasiga bag'ishlab kitoblar nashr etilib, qatl etilganlar xotirasiga yodgorliklar o'rnatildi. Tarixiy adolat ana shunday tiklanadi, olimlar qatag'on qilinganlarning ijodi merosini o'rganmoqda. Bizning vazifamiz qatag'on qilingan arboblarning fojiali taqdirini yana bir bor anglash, ularning ijodi merosini milliy tarixga kiritish kabi masalalar maqolada o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается политическая деятельность Турора Рискулова, участника борьбы местного населения Туркестана за свои политические права, а также социальные, политические и экономические условия и изменения в культурной жизни в период автономии Туркестана. Освещается роль Турора Рискулова в политических процессах страны и его социальная активность. Кроме того, в статье обсуждаются действия выдающегося государственного и общественного деятеля Турара Рискулова в начале XX века. В настящее время в нашей Республике издаются книги, посвященные памяти жертв политических репрессий, и установлены памятники в честь тех, кто был безвинно убит. Таким образом восстанавливается историческая справедливость, и учёные изучают творческое наследие репрессированных. Наша задача — еще раз осознать трагическую судьбу репрессированных лидеров и включить их творческое наследие в национальную историю, как это обсуждается в статье.

Abstract

This article examines the political activity of Turor Risqulov, a participant in the struggle for the local population of Turkestan to gain their political rights, as well as the social, political, and economic conditions and changes in cultural life during the period of autonomy in Turkestan. It highlights Turor Risqulov's role in the political processes of the country and his social activities. Additionally, the article discusses the activities of the prominent state and public figure Turar Risqulov at the beginning of the 20th century. Today, books are being published in our Republic dedicated to the memory of the victims of political repression, and memorials have been established in honor of those who were unjustly killed. Historical justice is being restored in this way, and scholars are studying the creative legacy of those who suffered repression. Our task is to understand once again the tragic fate of the repressed leaders and to incorporate their creative legacy into national history, as discussed in the article.

Kalit so'zlar: tarix, Turor Risqulov, Turkiston, qatag'on, siyosiy rahbar, xotira, Tinishpaev Muhammadjon, Turkiston o'lka muxtoriyati, Qirg'iziston, Rossiya imperiyasi, madaniy siyosat, ijtimoiy-siyosiy hayot.

Ключевые слова: история, Турор Рискулов, Туркестан, репрессии, политический лидер, память, Тинишаев Мухаммаджон, автономия Туркестана, Кыргызстан, Российская империя, культурная политика, социально-политическая жизнь.

Key words: history, Turor Risqulov, Turkestan, repression, political leader, memory, Tinishpaev Muhammadjon, autonomy of Turkestan, Kyrgyzstan, Russian Empire, cultural policy, socio-political life.

KIRISH

Jahondagi yangi siyosiy vaziyatda mustaqil davlatlar suverinitetini saqlash va mustahkamlash, mustamlakachilikning turli yangi shakllariga qarshi kurash har bir davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosatida mamlakat xavfsizligi va xalqlarning tinch-totuv yashashiga xizmat qiladigan turli islohotlar o'tkazish, xususan, davlat boshqaruvi tarixi hamda siyosiy jarayonlarda hamma payt siyosiy shaxslarning o'rni bo'lak bo'ladi. Siyosiy arboblar jamiyat taraqqiyoti qonunlarini avvaldan to'g'ri payqaganligi uchun butun bir xalqlar va davlatlar uchun dasturulamal bo'lgan g'oyalarni ishlab chiqadi, mamlakatda katta islohotlarni amalga oshiradi. Jamiyat taraqqiyoti oqilona boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilgani va siyosiy yetakchilarning mahorati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining asosiy qismi mustamlaka sifatida Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa o'z hududining muayyan qismini boy bergen holda Rossiyaga qaram davlatlar hisoblangan. Davlat va jamiyat hayotidagi muhim voqealar, ayniqsa, bu tarixning yangi burilishlarida, yangi ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalardan, ilmiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichida ro'y bersa, vaqt o'tishi bilan idrok etishni taqozo etadi. Shunday qilib, Turkiston o'lkasining siyosiy hayoti tobora tezkor sur'atlarga ega bo'la bordi. Bunda musulmon tashkilot va harakatlarining ta'siri kundan-kunga kuchaya bordi. Ular, xususan, podsho Rossiyasining eng chidab bo'lmaydigan boshqaruv idoralarini butunlay tugatishda sezilarli hissa qo'shdilar. Biroq Turkiston o'lsa general-gubernatori Kuropatkin joylarga qat'iy buyruq jo'natgan edi: "Muvaqqat hukumat farmoyishlariga to'liq bo'ysunish va mutlaqo tartibni saqlash kerak..."[1].

Turkiston o'lkasining musulmon aholisi ham faol siyosiy kurash jabhasiga tortildi. 1917 yilning mart – aprel oylari o'lkaning siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Turkistonda vujudga kelayotgan milliy demokratik kuchlarning yetakchisi taraqqiyparvarlar, ya'ni jadidlar bo'lib qoldi. Ular o'zlarining avvalgi butun faoliyati bilan shu vazifaga tayyorlangan edilar. Jadidlar Fevral demokratik inqilobiga, shu inqilob e'lon qilgan tamoyillarga katta umidlar bog'lab, uning g'oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faollik bilan kirishdilar. Shu davrda ular xalq ongi-shuurida jipslashish, milliy birlikni mustahkamlash ehtiyojini uyg'otish bobida muhim qadamlar qo'yishga muvaffaq bo'ldilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahonning turli davlatlari ilmiy markazlari va bir qator oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya va boshqa davlatlarda O'zbekistonning XX asrdagi sovet davri tarixi hamda siyosiy shaxslar faoliyati to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilmoxda. Bu izlanishlarda chorak asr davomida Turkistonning birinchi siyosiy rahbari bo'lgan Turor Risqulov va Nazir To'raqulovlarning XX asr 20-30-yillarda mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati ham turlicha talqin qilinmoqda. Sovet davlati yuritgan milliy siyosatning salbiy oqibatlari, kadrlar siyosatidagi xatoliklar, "milliy ittifoqdosh sovet respublikalari"da o'tkazilgan qatag'on siyosati, kommunistik mafkuraning yakka hukmronligi va uning oqibatlari, Kreml zug'umiga qaramasdan totalitar tuzum sharoitida faoliyat ko'rsatgan milliy liderlar hayoti o'rganilmoqda.

XX asrning 20-yillarda yaratilgan asar mualliflari T. Risqulov, N. To'raqulov, G. Safarov 1917 – 1924-yillar tarixiy voqealarining bevosita guvohi va ishtirokchisi edilar. T. Risqulovning «Революция и коренное населения Туркестана» nomli risolasida Farg'ona vodiysidagi 1917 – 1919-yillar siyosiy vaziyatini to'la tasvirlab bergan. Uning ta'kidlashicha, sovet hokimiyatining Farg'ona vodiysida, shuningdek, butun Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati hamda mahalliy aholining manfaatini inobatga olmasdan amalga oshirgan islohotlari natijasida o'lkada bolsheviklarga qarshi kurash boshlanib ketgan. Muallif o'zi guvoh bo'lgan voqealar asosida Farg'ona vodiysida sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyingi ahvol, vodiyyadagi ocharchilik va uning oqibatlari hamda Qizil armiya askarlari, arman dashnoqlari tomonidan qilingan xunrezliklar, uning oqibatlari ilk bor zamondosh sifatida xolisona yoritib bergan [2, 218].

1921-yilda nashr qilingan «Военная мысль» jurnalining 2-sonida «Darvish» taxallusi ostida Nazir To'raqulovning «Farg'ona muammosi» («Ферганская проблема ») nomli maqolasi e'lon qilingan. Muallif mazkur maqolada shu davrda Farg'onadagi og'ir ahvolni tahlil qilar ekan, sovet organlarining oziq-ovqat siyosatini yuritishdagi qo'pol xatolarini va mahalliy aholining ayanchli taqdirini ko'rsatib bergan[3, 108-118].

Bu davrda Turkbyuro a'zosi bo'lgan G.I. Safarov qalamiga mansub risolada ham Turkistonning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, o'lkada sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning zo'ravonlik siyosati, Qo'qonda tuzilgan «Turkiston muxtoriyati» hukumatining ag'darib tashlanishi va uning natijasida vodiyya boshlanib ketgan qurollari qarshilik harakati haqida muhim ma'lumotlar beriladi. G.I. Safarov Turkistondagi Oktabr to'ntarishini, asosan rus millatiga mansub aholi tomonidan amalga oshirilganligini va mahalliy aholi bu voqealardan mutlaqo chetda bo'lganligini qayd etgan[4, 184].

Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy masalalarni yoritishda bir guruh mutaxassislar tomonidan tayyorlangan Turkiston Respublikasining xo'jalik hayoti haqidagi hisobot muhim ahamiyatga ega[5] Unda Turkiston o'lkasi, shuningdek, Farg'ona viloyati uyezd-shaharlaridagi xalq xo'jaligi va aholi turmushining ko'plab sohalariga oid muhim statistik hamda rasmiy ma'lumotlar keltirilgan.

NATIJALAR

Turkiston o'lkasidagi faol siyosiy kurash ishtttirokchiliridan biri, Turor Risqulovich Risqulov – Turkiston turkiy xalqlari milliy-ozodlik harakati yetakchisi, atoqli davlat va jamoat arbobi, atoqli olim, publitsist, tarixchi, diplomat. Turkiy xalqlarni birlashtirish va "Yagona Turkiston" g'oyasini amalga oshirish yo'llidagi faol kurashchi. Turkistonning tub xalqlarining siyosiy huquq va erkinliklari, ularning yangi kelgan yevropalik aholi bilan tengligi va Sharqdagi inqilobiy harakat masalalari haqida so'zlagan atoqli nazariyotchi va mutafakkir. Kominternning (Kommunistik Internasional 1919 – 1943-yillarda turli mamlakatlar kommunistik partiyalarini birlashtirgan xalqaro tashkilot) Mo'g'ulistonidagi vakili sifatida diplomatik va emissarlik faoliyati bilan shug'ullanib, mustaqil Mo'g'uliston davlatining shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

Turor Risqulov 1894-yil 26-dekabrda Turkiston vohasi Yettisuv viloyati (hozirgi Olmaota viloyati) Vernenskiy tumani Sharqiy Talgar volostida Besagash traktida chorvador Risqul Jilqaydarov[6, 7] oilasida tug'ilgan. Uning bolaligi qiyin kechgan. 1921-yil mart oyida u o'zining tarjimai holida bu haqda shunday yozadi: "Uzoq vaqt davomida ochlik e'lon qilgan, hatto "yaxshi kunlarda" ham, ba'zan faqat suyultirilgan un bilan suv iste'mol qilgan ("bylamiq" - bu ko'chmanchi xalq ko'pchiliginining orasida keng tarqalgan ovqat turi), o'z qarindoshlarimga, ya'ni biylarga tiyin topish maqsadida cho'ponlik qilganliklari, bu biylar ko'pincha qamchi bilan taqdirlagani – bu mening bolaligimning eng katta qismi edi"[7, 127]. Uning otasi Risqul o'zi kambag'al bo'lishiga qaramay, o'jar va mag'rur xislatga ega edi. 1904-yil 20-dekabrda tuhmatning begunoh qurbanbi bo'lgan Risqul Sharqiy Talgar volost boshqaruvchisini o'ldirishga qaror qildi. Bir marta sabr-toqatini yo'qotgan Turorning otasi volost boshqaruvchisini otib tashladi, boshqaruvchining qarindoshlarining qatag'onlaridan yashirindi va keyin Vernenskiy qamoqxonasida ko'p oylarni tergov qilindi. Jandarmeriya Risqulni qidiruvga berib, uning qarindoshlarini, jumladan 10 yoshli Turomi avval Talgardon Besagash qishlog'iga, keyin Burundayga majburan ko'chirdi. Yolg'iz o'g'li va yaqinlarining taqdirdidan xavotirga tushgan Risqul o'zini militsiyaga topshirishdan boshqa chorasi qolmaydi hamda u o'z ixtiyori bilan militsiyaga taslim bo'ladi. 1904 yil 30 dekabr kuni u hibsga olinib, Vernenskiy qamoqxonasiga tashlangan. Sud Turorning otasini Saxalinda 10 yillik og'ir mehnatga hukm qildi. 1906-yil 28-iyulda Risqul Kopalsk-Ayaguz-Semipalatinsk yo'li bo'ylab uzoq Sibirga piyoda surgun qilindi[17]. Risqulning hayoti, uning mustamlakachi hokimiyat bilan to'qnashuvi Muxtor Omaranovich Auezovning "Qorash-Qarash dovonidagi o'q" hikoyasida, hamda taniqli yozuvchilar Temirgali Tolemisuli Nurtazin va Sherxan Murtazolarning asarlarida yoritilgan.

Qamoqxonaning rahbariyatiga qayta-qayta murojaat qilganidan keyin Turorni yoniga olishga muvaffaq bo'ladi. Turor otasining yonida bir yildan ortiq qamoqxonada yashaydi. Otasidan qattiq qayg'urgan Turor qamoqxonaning hovlisida uning yonida bo'lib, qamoqxonaning boshlig'inining buyrug'ini bajarar, hovli tozalash, chorva mollarini boqish, qo'riqchi Prixodkoning bolalarini Vernenskiy gimnaziyasiga o'qish uchun aravada olib borish bilan shug'ullanadi. U mahbuslarni tayyorlash kurslarida rus savodini puxta o'zlashtira boshlaydi. Bu yerda uning "hayot maktabi" shunday boshlangan. Qamoqxonada jazo o'tayotgan inqilobchilar Turorga balalayka, mandolin, akkordeon, dombra, skripka chalishni, o'qish va yozishni o'rgatgan. Ular bilan muloqot, suhbatlar, qo'shiqlar va hikoyalari - bularning barchasi T.Risqulovning kelajakdagi inqilob rahbari sifatida shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi[8, 227].

Tog'asi Turorni qatag'ondan qutqarib, bolani Avliyo-Ota tumaniga olib borgan va shu yerda Turor mahalliy boy qo'lida cho'pon bo'lib ishlagan. Biroq, matonat va tabiiy iste'dod uni timmay o'qib

ILMIY AXBOROT

yurishiga undaydi. U o‘z tarjimai holida shunday yozgan edi: “Bir tomonidan, shunday vaxshiy hayot sharoitida o‘sigan bo‘lsam, ikkinchi tomonidan, mening qat’iyatim bilan Evropa ma’rifatiga erishish - mening tarjimai holimga xos narsa”[7, 127].

T.Risqulov o‘z xotiralarida hayotning ushbu davri haqida gapirar ekan, volost ma’muriyatining zulmi, qabilalararo nizolar qanday avj olgani, ayblar isbotsiz ravishda mayda urug’larning eng kam ta’minlanganlari yelkasiga yuklangani haqida gapirardi. Turor Risqulov yoshligidan mahalliy qozoq boylari va ko‘chib kelgan rus qulaklari tomonidan turli tahqir va zulmlarga duchor bo‘lganligi sababli, o‘zini himoya qilishga majbur bo‘ldi hamda tengdoshlariga nisbatan erta ulg‘ayadi. Bu hayot qiyinchiliklari, keyinchalik milliy va ijtimoiy zulmga qarshi kurash uning hayotiy ishiga aylanishiga asos bo‘ldi.

MUHOKAMA

1907-yilda Avliyo-ota uyezdidagi Merke qishlog‘ida yashovchi qarindoshlari Turor Risqulovni o‘zları bilan olib ketishadi va mahalliy rus-tuzem maktabiga o‘qishga yuborishadi. Avval birovning nomi bilan uch yillik rus-qozoq maktabini tamomlagan, Vernenskiy cherkov maktabida o‘qigan, Merkadagi rus-tuzem maktab-internatini, so‘ngra 1914-yilda Pishpek qishloq xo‘jaligi maktabini tamomlagan. Bu maktabni o‘z vaqtida Qirg‘izistonning ko‘plab davlat amaldorlari, masalan, avtonom Qirg‘izistonning birinchi rahbari bo‘lgan I.Aydarbekov ham tugatgan.

Turor Risqulov bobosi (onasining otasi)ning, sudxo‘rlik evaziga kun ko‘rvuchi Merken boylari oldidagi qarzları ular tomonidan har xil zulm va quvg‘inlarga sabab bo‘ldi, yosh Turor ham bu tazyiqlarga duchor bo‘ldi. Boylar bobosining bor chorva mollarini zo‘rlik bilan tortib oldi. Turorning o‘zi esa bu chorva mollarni 30 kilometr narida joylashgan bozorga piyoda haydashga va yo‘l bo‘yi boylarning qamchilaridan zarba olishga majbur bo‘ldi. Bu voqeadan keyin Turor Risqulov tergovchi A. Semashkoga chopar bo‘lib ishga olinadi.

Mayjud muammo va qiyinchiliklarga qaramay, Turor Risqulov ilm olishga, o‘qishga g‘ayrat ko‘rsatgani Merken maktabi o‘qituvchilari tomonidan yuqori baholandi. O‘qishni tugatib, unga tavsiyanoma topshirib, Pishpek qishloq xo‘jaligi bilim yurtiga (hozirgi Bishpek shahri) yuborishadi. 1914-yilning kuzida Turor Risqulov bog‘dorchilik fakultetini muvaffaqiyatl tugatdi. Turor Pishpekda qirg‘iz elitasining ko‘plab ko‘zga ko‘ringan vakillari bilan uchrashdi, ular keyinchalik milliy davlatchilikni tiklashda muhim rol o‘ynadi. Ulardan A.Sidiqov, I.Aydarbekov, I.Arabaev, T.Xudaybergenov va boshqalarni qayd etishimiz mumkin. Turor Risqulovning o‘rganish istagi hayratlanarli. O‘qishni tamomlagach, o‘qishni davom ettirishga intilgan Turor Risqulov Samaratagi 1-darajali qishloq xo‘jaligi bilim yurtiga hujjatlarini topshiradi. Biroq, kirish imtihonlarini muvaffaqiyatl topshirganiga qaramasdan, shuningdek, 250 nafar abiturient orasida yagona qozoq millati vakili bo‘lganiga qaramay, qabul komissiyasi uni o‘qishga qabul qilishni rad etgan. Uni Samara qishloq xo‘jaligi maktabiga qabul qilish rad etildi, chunki uning direktori ko‘chmanchi xalq vakili qishloq xo‘jaligini o‘rganishga hojat yo‘qligiga ishora qildi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan Turor Risqulov butun 1915-yilni Tulkiboshidagi qarindoshlarinikida o‘tkazadi. O’sha paytda bu yerda Semirechenskaya temir yo‘lining Aryssko-Auleatinskiy uchastkasi qurilishi ketayotgan edi. Qurilish ishlarini Sankt-Peterburg instituti bitiruvchisi, muhandis Muhammadjon Tinishpaevich Tinishpaev boshqargan. M.Tinishpaev asli kelib chiqishi Yettisuvalik bo‘lganligi uchun ham mard Risqulning misli ko‘rilmagan qilmishi haqida ko‘p eshitgan, shu bois o‘g‘li Turor Risqulov yaqin atrofda ekanini bilgach, u bilan yaqindan tanishishga qaror qildi. Turor Risqulovning hayotiy qarashlari, keng dunyoqarashi, yoshidan ham etuk va noan’anaviy (kreativ) fikrlash qobiliyati, mard fe‘l-avtori M.Tinishpaevga yoqimli taassurot qoldirdi. Unga o‘qishni to‘xtatmaslikni qat’iy maslahat beradi va o‘z jamg‘armasidan mablag‘ ajratib beradi. Turor Risqulov og‘ir pallada unga yordam qo‘lini cho‘zgan M.Tinishpaevning bu ezgu ishini doim eslab yurar. Keyinroq o‘zi ham, Muhammadjon va uning o‘g‘li Eskendirga ham qo‘lidan kelganicha yordam berishga harakat qiladi[9, 110-112].

Turor Risqulov Toshkentga kelib o‘qituvchilik institutiga o‘qishga kirishga harakat qiladi. u ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi – Turorni chet ellik deb rad etishdi. Uning Turkiston o‘lkasi ta’lim muassasalari inspektori Solovyov nomiga yozma arizasi javobsiz qolada. “... Men musulmonman, Rossiya imperiyasining qonunlar kodeksiga ko‘ra, faqat pravoslav xristianlar institutga qabul qilinadi”[7, 130]. Uning Rossiya imperiyasi Xalq ta’limi vazirligiga yo’llangan xat ham hech qanday o‘zgarishlarga olib kelmadи. Keyinchalik, Sankt-Peterburgdagi Maorif vazirligiga yangi ariza kelib

tushdi, ruxsat olindi va 1916-yilgi daxshatli voqealar haqidagi xabar unga yetib borgunga qadar ikki yil o'qituvchilar institutida o'qidi. Biroq bu qiyinchiliklar Turor Risqulovni sindira olmadı. Toshkent yaqinidagi Krasnovodsk qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida bog'bon bo'lib ishlab, Toshkent erkaklar gimnaziyasida sirtqi bo'limida o'qib, uni tamomlagandan so'ng 2-toifali erkin tinglovchi guvohnomasi bilan taqdirlangan[10].

1916-yilda Turor Risqulov Rossiya imperiyasi hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi bosh ko'targan o'z ona xalqi tomonida edi[7, 13-20]. Turor o'qishni tashlab, Rossiya Imperiyasi ma'muriyati va mahalliy hukmdor elitasiga qarshi kurashda kambag'allar manfaatlarini himoya qilganlar safiga qo'shilishga qaror qiladi. Qo'zg'olon paytida Turor Risqulov Toshkentni tark etib, Merkega keladi. Yoshligiga qaramay (u endigina 20 yoshda edi), Turor allaqachon vaziyatni baholab, to'g'ri qaror qabul qila oldi, shu tufayli u Qozog'istonning janubi-g'arbiy qismidagi milliy-ozodlik harakatining yetakchisiga aylana boshladi, u yerda qo'zg'olonchilar va jazolovchi qo'shinlar o'rtasida keskin to'qnashuvlar bo'lган[12, 137, 5-9, 9, 231]. Qo'zg'olon kuchaygan davrda mahalliy militsiya Turor Risqulovni faol ishtirokchilardan biri sifatida hibsga oladi, biroq uning aybini isbotlay olmay, uni ozod qilishga majbur bo'ladi. Politsiya Turor Risqulovdan siyosiy ishlar bilan shug'ullanmasligi haqida tilxat yozirib oldi. Keyin og'ir kasal bo'lib qoladi va tuzalib, o'qishni davom ettirish uchun Toshkentga qaytib keladi. Bu vaqtida u avtokratianing ag'darilishi haqida bilib oladi. Bu yangilik oddiy xalq tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. "Rossiya imperiyasi bo'yinturug'i ostida o'nlab yillar davomida to'plangan milliy o'z taqdirini o'zi belgilashga chanqoq yoshlar jon berdi. Hamma shaharlarda, hatto qishloq va mahallalarda ham namoyishlar uyushtirildi"[8, 236], deb eslaydi keyinroq T.Risqulov.

1916-yil sentabrda Toshkentga qaytib kelgan T.Risqulov imtihon topshirishga ruxsat olib, Toshkent o'qituvchilar institutiga o'qishga kiradi[13]. Qarindoshlarining ko'magidan mahrum bo'lган Turor Risqulov doimiy ravishda moddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, shuning uchun u o'qishni bog'bonlik bilan birlashtirishga majbur bo'ldi. 1916-yil oktabr oyida u institut direktoriga quyidagi mazmundagi xat yozadi: "Kelgusi qishni hisobga olib, kiyim-kechak, masalan, galosh, ko'rpa, ichki kiyim, shuningdek, o'quv qurollarini sotib olishni xohlayman, lekin. Bularni olish uchun pulim yo'q, men sizdan imkon qadar ko'proq moddiy yordam so'rashga majburman, chunki mening na otanonam, na yordam kutilishi mumkin bo'lган biron bir muhim shaxs yo'q. 1916-yil 19-oktyabr, T.Risqulov"[14]. Institut direktori Turorni qiyin ahvolda ekanligini bilib, unga 70 rubl ajratishni buyuradi. Maktubdan Turor Risqulovning ijtimoiy-maishiy ahvoli naqadar og'ir bo'lганini ko'rish mumkin.

1917-yilgi fevral inqilobi voqealar girdobi yigitni o'ziga singdirdi. 1917-yilning yozida u qozoq va qirg'iz kambag'allarining manfaatlarini himoya qilish uchun Avliyoota tumanida (hozirgi Qirg'iziston va Qozog'iston hududining bir qismi) "Buxoro" inqilobi ittifoqining bo'limini tuzdi va 1917-yil sentabrda u Rossiya Sotsial-demokratik mehnat partiyasi (RSDRP) (b) a'zosi bo'ladi. Shu paytdan boshlab Turor Risqulov jadal davlat arbobi sifatida shakllandi: u qozoq deputatlarining qurultoyini o'tkazdi, Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga saylandi, Turkiston sog'liqni saqlash komissari lavozimiga tayinlandi, 1918-yil noyabrda esa Chekada ochlik qarshi kurash olib bordi. Turor Risqulov barcha lavozimlarda o'z tabiatining g'ayrioddiy xususiyatini namoyon etdi: u fidokorona, maqsadli, to'liq fidoyilik bilan ishladi. Siyosiy beqarorlikning og'ir davrida ko'chmanchi xalqning siyosiy huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy mavqeini himoya qilish uchun T.Risqulov "Buxoro" tashkilotini tuzdi. Keyinchalik T.Risqulov siyosiy o'zgarishlar ta'sirida tashkilot nomi "Qozoq yoshlari inqilobi ittifoqi"ga o'zgarganligini ta'kidlaydi. Ilk bor ushbu tashkilotning nizomi va dasturini 1925-yilda yozilgan o'zining "Inqilob va Turkistonning tub aholisi"[15, 218] to'plamida, bir necha yildan so'ng, 1930-yilda S.M. Dimanshteyn tomonidan tuzilgan boshqa to'plamga kiritilgan[16, 366-368].

XULOSA

Mintaqada dastlabki demokratik hukumat bo'lган Turkiston Muxtoriyatining oradan ko'p o'tmay bolsheviklar tomonidan tugatilishi bilan sovet rejimiga qarshi qurolli harakat boshlandi. Shu bilan birlgilikda Turor Risqulov va Nizomiddin Xo'jaev singari bir guruh mahalliy communistlar sovet hukumati va bolsheviklar partiyasi idoralarida faoliyat ko'rsatib, bolsheviklar siyosatini Turkistondagi mahalliy sharoitga moslashtirmoqchi bo'lishdi. Shuning uchun ular mahalliy aholining o'ziga xos boshqaruv organini tuzishga harakat qildilar. T.Risqulov Turkistonda ham, Moskvada ham rahbarlik lavozimlarida ishlab yurgan chog'ida zo'ravonlikka uchragan arboblarga ilmiy-ijodiy

ILMIY AXBOROT

faoliyat, ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun tegishli shart-sharoit yaratib, har tomonlama yordam va ko'mak berishga harakat qildi, fuqarolar urushi tugaganidan keyin siyosiy ta'qibga uchragan "Alash" arboblari – M.Tinishpaev, X.Do'smuhamedov, M.Jumaboev, M.Auezov va boshqalar.

T.Risqulov tufayli Turkiston Respublikasining minglab iqtidorli yoshlari Rossiya va SSSRning yetakchi oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar, keyinchalik ular orasidan buyuk davlat arboblari yetishib chiqdi, o'z mehnati bilan aziz Mustaqillik bayramini yaqinlashtirdi.

Shu nuqtai nazardan, Turor Risqulovdek siyosiy rahbarning faoliyati Turkiston tarixining o'rganilmagan sahifasi bo'lib, ayniqsa, bu tarixning fojiali bosqichlari – o'tgan asrning 30-yillari totalitar tuzumining o'zgacha fikrga qarshi kurashi va qataq'onidir. Sobiq KGB arxivi va Qirg'iziston Siyosiy hujjatlar markaziy arxividan olingan ba'zi maxfly hujjatlar mard, tashabbuskor siyosatchi, iste'dodli tashkilotchi, rus inqilobi g'oyalarini yosh milliy respublikada hayotga tatbiq etishni istagan Turor Risqulov hayotida yangi sahifalarni ochishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivni (O'zbekiston MDA), I-2-fond, 1176-ish, 3-varaq.2. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. (Сборник статей, докладов, речей и тезисов). Част 1. 1917–1919 гг. – Ташкент: Узбекгосиздат, 1925. – 218 с.
3. Дервиш. Ферганская проблема // «Военная мысл». Книга. – № 2. – Ташкент, 1921. – С. 108–118.
4. Сафаров Г.И. Колониальная революция / Опыт Туркестана. – Москва, 1921. – 184 с.
5. Очерки хозяйственной жизни Туркеспублики. – Ташкент, 1921.
6. Қоңыратбаев О.М. Тұrap Рысқұловтың қоғамдық-саяси және мемлекеттік қызыметінің күндерегі. Биохроникалық зерттеу. 1 том (1894 – 1919 жж.). – Тараз: «Формат-Принт» баспасы, 2014. – 7 б.
7. Карымсакова А. Тұrap Рысқұлов в истории Кыргызстана. Документальные вехи биографии // А. Карымсакова, С. Омурзаков, В. Плоских // отв. ред. д-р ист. наук З. К. Курманов. – Бишкек: Нео Принт, 2016. – С.127.
8. Рыскулов Т. Из истории революционной борьбы в Казахстане // Избранные труды. – Алма-Ата, 1984. – С.227., 236.
9. Alash qozg'alyzysi. Qızıttar men materialdar jinag'ы. Qaңtar 1929 – shilde 1938 jj. // Dvijeniye Alash. Yanvar 1929 g.– iyul 1938 g. 3 том, 2 kniga. – Almatы: El-shejire, 2007. – 110-112 b.b.
10. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 7-varaq.
11. Қоңыратбайев О.М. Тұrap Rыsқұlov jene 1916 jыlg'y үlt-azattыq keterilis мәскеleleri // «Үlt-azattыq qozg'alyistar tarixi: təcүelsizdikke bastar jol» attы respublikalyq g'ыlymi-teoriyalыq konferensiya materialdarды. Abay atyndag'ы QazNPU, 17 mausym, 2011 жыл = «Istoriya nasionalno-osvoboditelnykh dvijeniy: put k nezavisimosti». Materialы respublikanskoy nauchno-teoreticheskoy konferensii. – Almatы: KazNPU imeni Abaya, 2011. – 13-20 str.
12. Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстане. Ташкент, 1967. 137 стр; 5, 9 стр; 2, 231 стр.; Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. М., 1960. – 9 стр.; Рыскулов Т. Из истории революционной борьбы в Казахстане // Избранные труды / Т. Рыскулов. Алма-Ата, 1984. – С.231.
13. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 79-varaq.
14. O'zbekiston MDA, R-366-q., 1-fond, 29-ish, 12-varaq.
15. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. Част И. 1917 – 1919 гг. – Ташкент: Узбекгосиздат, 1925. – 218 стр.
16. Революция и национальный вопрос. Документы и материалы по истории национального вопроса в России и СССР в XX веке / Под ред. С.М. Диманштейна. Т.3. (1917 г., февраль – октябрь). Сост.: И. Левин и Э.Драбкина. – Москва: Изд. Коммунистической академии, 1930. – С. 366-368.
17. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 4-6-varaqlar; «Risqul Jilqaydarov ishi» QR MDAning 44-q., 1-t., 8898, 9014, 9102 ishlarida saqlanib kelinmoqda.
18. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900-1939). – Toshkent: "Fan", 2024. – B.752.